# XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2023- yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 504,5 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ga oshdi.

O‘rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 219,3 ta korxona va tashkilotlarda tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, foizda**

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming so‘m

*(2023- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)*

### SANOAT SOHASIDA



**4 303,2 ming so‘m** *Yanvar*

*Fevral* **4 472,2 ming so‘m**

**5 106,2 ming so‘m** *Mart*

*Yanvar-Mart*

**4 627,3** *ming so‘m*

### QURILISH SOHASIDA



**2 980,8 ming so‘m** *Yanvar*

*Fevral* **3 130,8 ming so‘m**

**2 972,2 ming so‘m** *Mart*

*Yanvar-Mart*

**3 028,3** *ming so‘m*

### SAVDO SOHASIDA



**2 824,7 ming so‘m** *Yanvar*

*Fevral* **2 871,7 ming so‘m**

**3 437,2 ming so‘m** *Mart*

*Yanvar-Mart*

**3 046,5 ming so‘m**

### TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



**2 721,0 ming so‘m** *Yanvar*

*Fevral* **2 670,4 ming so‘m**

**3 197,5 ming so‘m** *Mart*

*Yanvar-Mart*

**2 867,9** *ming so‘m*

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



| Oy | Qiymati |
|---|---|
| Yanvar | 4 445,6 ming so‘m |
| Fevral | 7 518,2 ming so‘m |
| Mart | 7 282,5 ming so‘m |

*Yanvar-Mart*

**6 413,7**
*ming so‘m*

## BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA




| Oy | Qiymati |
|---|---|
| Yanvar | 8 517,5 ming so‘m |
| Fevral | 9 827,4 ming so‘m |
| Mart | 11 618,2 ming so‘m |

*Yanvar-Mart*

**9 985,8**
*ming so‘m*

## TA’LIM SOHASIDA



| Oy | Qiymati |
|---|---|
| Yanvar | 2 773,8 ming so‘m |
| Fevral | 2 901,5 ming so‘m |
| Mart | 2 943,0 ming so‘m |

*Yanvar-Mart*

**2 872,5**
*ming so‘m*

## SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASIDA



| Oy | Qiymati |
|---|---|
| Yanvar | 2 808,7 ming so‘m |
| Fevral | 2 708,9 ming so‘m |
| Mart | 2 894,8 ming so‘m |

*Yanvar-Mart*

**2 804,3**
*ming so‘m*

**2023- yilning yanvar-mart oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqininig iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlili:**

*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Sanoat** sohasidagi 71 ta korxona va tashkilotlarda 44,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,1 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 603,4 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 26,6 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 627,3 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga o‘sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 14 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 7,6 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 028,3 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 58,8 % ga o‘sdi.





**Savdo** faoliyat turidagi 19 ta korxonada 1,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,6 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 13,9 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 046,5 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 34,9 % ga o‘sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 13 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 8,0 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 867,9 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 39,1 % ga o‘sdi.





**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar** sohasidagi 3 ta korxonada 0,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 1,1 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 642,6 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,1 % ga o‘sdi.



**Axborot va aloqa** sohasidagi 9 ta korxonada 1,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 18,5 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 6 413,7 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 83,4 % ga o‘sdi.



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik** iqtisodiy faoliyat turidagi 24 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 122,5 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 9 985,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o‘sdi.




**Ta’lim sohasi** iqtisodiy faoliyat turidagi 1515 ta korxonada 96,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,1 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 819,6 mlrd so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 36,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 2 872,5 ming so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga o‘sdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 78 ta korxonada 44,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,2 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 377,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 16,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 804,3 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,7 % ga o'sdi.





**San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasi**dagi 67 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 16,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 535,1 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 21,2 % ga o'sdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasi**dagi 393 ta korxonada 24,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,9 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 276,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 12,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 830,3 ming so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 28,3 % ga o'sdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 9 985,8 ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko'rsatkichlar sanoat faoliyat turida (4 627,3 ming so'm) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (6 413,7 ming so'm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 2 642,6 ming so'mni tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2023- yil yanvar - mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)*




Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (5 098,4 ming so‘m), Andijon shahrida (4 482,6 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston, Buloqboshi va Ulug‘nor tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati

*(2023- yil yanvar-mart, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)*



## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2023- yil yanvar-mart oylarida; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)*

| | 2022- yil | 2023- yil | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **2 972,5** | **3 504,5** | **117,9** |
| *Shaharlar* | | | |
| Andijon sh. | 3 859,2 | 4 482,6 | 116,2 |
| Xonobod sh. | 3 068,3 | 3 208,4 | 104,6 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinko‘l | 2 160,8 | 2 612,3 | 120,9 |
| Andijon | 2 397,1 | 2 721,7 | 113,5 |
| Baliqchi | 1 978,7 | 2 484,7 | 125,6 |
| Bo‘ston | 1 960,5 | 2 277,6 | 116,2 |
| Buloqboshi | 2 010,8 | 2 382,9 | 118,5 |
| Jalaquduq | 2 108,6 | 2 538,5 | 120,4 |
| Izboskan | 2 454,4 | 2 974,3 | 121,2 |
| Ulug‘nor | 2 192,9 | 2 329,8 | 106,2 |
| Qo‘rg‘ontepa | 2 404,2 | 2 810,3 | 116,9 |
| Asaka | 4 393,9 | 5 098,4 | 116,0 |
| Marhamat | 2 273,8 | 2 773,8 | 122,0 |
| Shahrixon | 2 325,2 | 2 509,1 | 107,9 |
| Paxtaobod | 2 652,4 | 3 001,0 | 113,1 |
| Xo‘jaobod | 2 262,4 | 2 448,6 | 108,2 |

**Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat ko‘rsatkichiga nisbati foizda**

(2023- yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (5 098,4 ming so‘m, viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,5 % ga yuqori), Andijon shahri (4 482,6 ming so‘m,127,9 % ga yuqori) da kuzatilgan bo‘lsa, Bo‘ston tumani (2 277,6 ming so‘m, viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 65,0 % ga past) va Ulug‘nor tumani (2 329,8 ming so‘m, viloyat ko‘rsatkichidan 66,5 % ga past)da kuzatildi.

**Ma’lumot uchun:**

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022 yil sentabr oyidan **920 000** so‘mni tashkil etgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022- yil 20- maydagi PF 138-sonli farmon) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.



## STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti-** korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi-** joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar-** Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab, narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar kiradi.